

## MAHALLIY QUYON ZOTLARI VA ULARNI BOQISH

**Mirzosharipova Ma'mura Shavkatjon qizi**

*o'qituvchi Farg'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya:** *Maqolada mahalliy quyon zotlariva ularni boqish va tarqalishiga doir ma'lumotlar tajriba tahlillari orqali izohlab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Quyoning zotlari, shinshilla, serpusht, sutlilik, kumush-moviy, Kulrang velikan, Oq momiq, Oq velikan, go'sht, go'sht-teri, qisqa yungli va uzun yungli, Qora qo'ngir.*

**Abstract.** *In the article, information about local rabbit breeds and their breeding and distribution is explained through experimental analysis.*

**Key words:** *Rabbit breeds, chinchilla, serpusht, milky, silver-blue, Gray giant, White fluff, White giant, meat, meat-skin, short wool and long wool, Black brown.*

Quyoning zotlari asosan uchta ya'ni: go'sht, go'sht-teri (mo'yna) va momiq yo'nalishlariga ixtisoslashgan.

Quyон zoti ikki asosiy mezonga, xususan: yung qoplamasiga ko'ra me'yoriy yungli (aksariyat zotlar), qisqa yungli va uzun yungli (momiqli); tanasining kattaligiga ko'ra yirik, o'rta va mayda turlarga bo'linadi (Tinayev, 1988).

### Shinshilla

Yirik zotga mansub go'sht-teri olishga ixtisoslashgan quyon. Baquvvat jussasi va qalin yung qatlami bilan farqlanib turadi. O'rtacha tirik vazni 5 kg, ayrimlari esa 6-7 kg ga qadar etiladi. Urg'ochi quyon serpusht, sutlilik darajasi yuqori bo'lib, 8-12 boshgacha bola boqib, ulg'aytiradi. Badanidagi yung qoplamasi kumush va kumush-moviy tusda ko'rinib, umurtqa va biqinlarida egri-bukri qora chiziqlar ko'zga tashlanadi. Qorin sohasi va oyoqlarining ichki tomonidagi momiqlar asosan oq rangda bo'lib, tarkibida biroz qoramtir tus oladi. Beli va biqinidagi mo'ynaga puflanganda tagi moviy, undan yuqori qismi to'qroq tusga ega tuk va momiqlar qatlami, so'ng oq rangdagi halqalar ko'rinadi, mo'yna uchi qora bo'ladi. Quyon ko'zlari hoshiyaga ega, quloqlari va dumining yuqori qismida qora dog', boshining orqasidagi kamgakda och tusli qashqa bo'ladi.

Ushbu quyon mo'ynasi shinshilla deb ataluvchi olmaxonsimon jonivorning tabiiy ko'rinishdagi mo'ynasiga o'xshab ketishi bois (zotning nomlanishi ham shu sabablidir) uning terisiga talab katta bo'ladi. Undan telpak, mo'ynali po'stin va yoqalar tayyorlanadi.

Urg'ochisining onalik sifatleri yaxshi rivojlangan. Bolalashdan oldin mayda to'shama hamda qorin va biqin sohasidan yulib olgan momiqdan kattagina uya tayyorlaydi. U tayyorlagan uya tashqariga chiqarilgan katakda 30o C gacha sovuqda naslini saqlab qoladi. Bunga birinchi bor emas, balki ikkinchi va keyingi bolalashida erishadi, albatta.

Sovet shinshillasi iqlim va yemning turli sharoitlariga tez ko'nikib ketishi tufayli havaskor quyonboqarlar ichida keng tarqalgan.

### Kul rang velikan

Yirik zotga mansub go'sht-teri olishga ixtisoslashgan quyon. Gavdasining uzunligi 51-65 sm gacha bo'lib, deyarli yumaloqlashib ketgan, jussasi baquvvat jonivor.

Ko'kraging yo'g'onligi 37-39 sm. Beli to'g'ri va keng. Oyoqlari baquvvat, qisqa, sermushak. Tirik vazni 5-8 kg ga etadi. Yung qoplamasining rangi 4 xil: sarg'ish kul rang, ochiq kul rang, to'q kul rang va qora bo'ladi.

Urg'ochisi tez urchiydi, har bolalaganida 10 boshgacha bola beradi.

Oq momiq

O'rta kattalikka mansub zot. Vazni 3-4 kg, ayrimlari 4,5-4,9 kg ga etadi. Tanasining uzunligi 54 sm, ko'kraging yo'g'onligi 30-34 sm keladi. Yil davomida har bir tolasining uzunligi 6-16 sm keladigan, vazni 300-500 gr, ayrimlari 700 gr gacha oppoq momiq beradi.

Oq velikan

Go'sht-teri olishga ixtisoslashgan zot. Tanasining uzunligi 60-67 sm. O'rtacha tirik vazni 5 kg. O'z vaqtida va sifatli shilib olingan teri qabul punktida oliy navga qabul qilinadi.

Oq quyon, odatda, albinos bo'lib qizil ko'zlari bilan farq qilib turadi.

Qora qo'ng'ir

Go'sht-teri olishga ixtisoslashgan zot. Yung qoplamasining rangi qora qo'ng'ir tulki yungining tusiga o'xshab ketganligi bois shunday nom berilgan. Quyunchalari 3 oygacha tim qora rangini saqlab turadi. 7-8 oyga yetganlaridagina yunglaridagi tus o'zgarib boshlaydi. Ulg'aygan quyon yungining rangi tanadagi turli joylarda turlicha ko'rinadi. Misol uchun, boshi va beli qora, biqinlari qo'ng'ir, qorin sohasi to'q moviy. Tukining yo'nalgan qismi qora bo'lib tagi biroz ochroq. Biqinidagi tuklar tuslangan. Ushbu quyon baquvvat jussasi bilan farq qilib turadi. Suyaklari mustahkam. Tanasi 61 sm gacha cho'ziq, boshi yirik, ko'kragi yo'g'on va keng. Beli uzun, to'g'ri va keng bo'ladi. Oyoqlari to'g'ri, uzun va yo'g'on. Ulg'ayganda 5-6,5 kg, ayrimlari hatto 8 kg ga borib etadi. Urg'ochi quyon o'rtacha 8 boshgacha bola beradi. 3 oyga to'lgan quyunchalar vazni 2,5-2,9 kg ga borib etadi.

Kumush rang

Go'sht-teri olishga ixtisoslashgan ushbu quyoning tanasi yirik va ixchamdir. Tashqi ko'rinishi hurpaygan, mo'ynasi yumshoq, qalin va rang-barang, terisining pitiryog'i esa zich bo'lganligi uchun ham juda qadrlanadi. Ayrim quyonboqarlar uni asosan mo'yna olishga ixtisoslashgan deb hisoblaydilar. Biroq u jadal ulg'ayib, juda tez etilishi va sergo'shtligi bilan boshqa zotlardan farq qilib turadi. Ko'kragi, beli va dumg'azasi enli, oyoqlari mustahkam. Sag'ridagi mushaklar rivojlangan bo'lib, yumaloqlanib ketishi ushbu zotga xos alomatdir. Bundan tashqari uning boshi kichik bo'lib, peshonasidan boshlab burun tomon tushgan qismi torayib boradi. Quloqlari kalta, ensiz bo'lib, doim tik turadi. Ko'zlari jigarrang, jonli. Bir tekis tus olgan mo'ynasi eskirgan kumush rangi singari ko'rinadi. Yungining qatlami ikki tusli, xususan: yunglari qora (yo'naltiruvchilari och qora), tuklari esa oq bo'ladi. Momig'i bir tekis toshqalam moviy tusga ega. Tuklarning kumush rangi turlicha nisbat berib: to'q-o'rtacha-och jilovlanadi. Quyunchalar tim qora rangda (ba'zan ko'kimtir) tug'ilib, faqat 4-5 haftadan so'nggina burun, dum va qorin sohasida kumush tus paydo bo'ladi. Shundan so'ng bosh, bel, ko'krak va quloqlari o'z rangini o'zgartira boshlaydi. Tuk qoplamasining ana shunday izchillikda o'zgarib borishi to'g'ri bo'lib, quyon asl zotga mansub ekanligidan dalolat beradi. Mo'ynasining tuslanish jarayoni 4 oyga to'lganida nihoyasiga etadi. Tuki ingichka, ipaksimon bo'lib, qalinligi va pishiqligi talab darajasida bo'lmaydi. Kul rang urg'ochi 8-9 bosh bola

beradi. Tabiatan sho'x bo'lib, kun tartibi va odamlarga tez moslashadi. Mo'ynasi Sibir olmaxonining mo'ynasini eslatadi.

#### Vena moviy quyoni

Go'sht-teri olishga ixtisoslashgan jussasi o'rtacha quyon. Yirikligi va gavdasining shakli asosan flandrardan meros qolgan xususan: tanasi cho'ziq (flandra nisbatan pishiqroq), suyaklari mustahkam, dumg'azasi bilan beli keng bo'lib, ammo flandranikidek yo'g'on bo'lmaydi. Mo'ynasining rangi qatlamlarga bo'linmagan tarzda yalpi tanasi bo'ylab bir tekis ko'kimtir moviy bo'lib, oq-qora tuklari bo'lmaydi. Tuk va momiqlari qalin, yumshoq, hurpaygan bo'lib, nisbati bo'yicha (1:65) rus oqsuvsar quyonidan keyin (1:90) barcha zotlarga mansub quyonlardan ustun turadi. Uning mo'ynasi dengiz mushugi mo'ynasiga taqlid qilish maqsadida qo'llaniladi.

Sutli bo'lib, urchish tizg'inligi etarlicha jadal kechadi. Yaxshi sharoitda boqilgan 90 kunli yosh quyon 2,5-2,6 kg ga, 4 oyga to'lganida esa katta quyon vaznining 70 % ga etadi. Urg'ochisining tirik vazni 4,6-5 kg, ayrimlari 7 kg ga etadi. Tez voyaga etishi, go'shtdorligi va egan yemini oqlashiga ko'ra go'sht-teri olishga ixtisoslashgan zotlar orasida o'rtacha o'rinda turadi. Quyunchalar kul rang tusda dunyoga keladi. Zotiga xos rangga ikkinchi bor tulaganidan so'nggina burkanadi. Ba'zan, yoz faslida, yungiga xira qo'ng'ir qirov tushib, qishga yaqin tulaganida g'oyib bo'ladi.

#### Kapalak zoti

Go'sht-teri olishga ixtisoslashgan yirik quyonlar guruhiga mansub zot. Tumshug'idagi dog'lar oq joyga qanotlarini yozganicha qo'nib olgan kapalakka o'xshab ketganligi bois quyonga shunday nom berilgan.

Mo'ynasining aksariyat qismi sof oq bo'lib, ba'zi joylaridagi dog'lar tanasiga naqsh berib turadi. Dog'lar rangiga ko'ra ushbu zot qora, moviy, sariq va kul rang kapalakka bo'linadi. Ular ichida esa, mo'ynadagi dog'lar rangi bir-biridan keskin farq qilishi bois qora va moviy rang kapalaklar eng chiroyli deb e'tirof etilmoqda.

Tanasi baquvvat, a'zolar birday rivojlangan, beli cho'ziq, biroz arkasimon, sag'ri keng, mushakli, suyaklari mustahkam. Yaltiroq mo'ynasining qalinligi o'rtacha, tuklar qisqa, paypaslaganda zichday tuyuladi. Ko'zlarining aylanasida to'q rangli uzilmagan hoshiya bo'ladi. Ushbu hoshiyalar, asl zotli quyonda burun, yuz va quloqlardagi dog'larga tutashmagan, muxtor bo'lishi shart. Ko'zlarining rangi hoshiya rangiga mos kelishi, ikkala yuzidagi dog'lar simmetrik joylashgan bo'lishi kerak. Quloqlarining asosidan dumining uchiga qadar beli uzra keng (eni 3 sm keladigan) uzluksiz, dandanali to'q chiziq o'tgan bo'ladi. Biqin sohasidagi dog'lar umurtqa ustidan o'tgan chiziq bilan tutashmasligi kerak.

Urg'ochining emchaklaridagi so'rg'ichlar atrofida qora dog'lar bo'lishi shart. Bunday dog'lar bo'lmasa quyon asl zotli sanalmaydi. Tirnoqlari va dumining pastki qismi rangsiz bo'ladi. Kapalak zotiga mansub quyon tanasidagi ranglar topografiyasi yangi yaratilayotgan zotlarga oson o'tishi va boshqa (sariq, kul) ranglar bilan uyg'unlashib ketishi mumkin.

Urg'ochi quyon kuchli bo'lib, har safar o'rtacha 8 boshdan bola beradi. Etarlicha sutli bo'ladi. Katta yoshdagi quyon vazni 4,5 4,8 kg ga etadi. Boshqa zot bilan chatishtirilsa mo'ynasining sifati buziladi. Bu, ayniqsa kul rang velikan yoki sovet shinshillasi bilan chatishtirilganda ko'zga yaqqol tashlanadi. Chatishtirish natijasida hosil bo'lgan zot

mo'ynasida noaniq, ba'zan xira dog'lar bo'lib, naqshlari xunuklashib ketadi. Oqibatda ayollar va bolalar kiyimlarini tayyorlashga yaroqsiz teri hosil bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 7-fevral kungi farmoni bilan 2017—2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
2. Ikramov T.X. Chorvachilik "Darslik" "Mehnat" Toshkent. 1985.
3. Андреева В. С., Уткин Л. Г. Кормление кроликов. – М.: – Колос, 1974. – 80 с.
4. Богородская Л. А., Леонова В. П. Совершенствование технологии содержания кроликов на промышленной основе. – М., 1978. – 48 с.
5. Бондаренко С. П. Содержание кроликов пуховых пород. – АСТ-Сталкер, 2003. – 219 с.
6. Бондаренко С. П. Содержание кроликов мясных пород. – АСТ-Сталкер, 2003. – 218 с.
7. Бондаренко С. П. Содержание кроликов мясо-шкурковых пород. – АСТ-Сталкер, 2003. – 218 с.
8. Бывальцев А. К., Вакульчук С.М. Промышленное кролиководство. –